

**G.U.UMAROVA**

# **MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI**



**G.U.UMAROVA.**

**MATEMATIK TASA VVURLARNI  
SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI  
VA METODIKASI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULJAHON UMAROVA**

**MATEMATIK TASAVVURLARNI  
SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA  
METODIKASI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Oliy o'quv yurtlarini 5111800-«Maktabgacha ta'lif » bakalavr yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlagan

**Toshkent - 2020**

- Taqrizchilar:
- F.M. Qosimov - BuxDU «Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi» kafedrasи, p.f.n., dotsent.
  - R.T. Muxitdinov- TIQXMMI Buxoro filiali, ” Matematika va tabiiy fanlar” kafedrasи dotsent.

O‘quv qo‘llanma bakalavriat yo‘nalishi 5111800 – “ Maktabgacha ta’lim” talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, davlat ta’lim standartiga to‘la mos keladi.

Qo‘llanma matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasining nazariy asoslari, bolalarda miqdor va son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, sanashga o`rgatish, predmetlarning o`lchami va ularni o`lchash haqidagi tasavvurlarni shakllantirish , predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o`ziga xos xususiyatlari, fazoviy va vaqt tasavvurlarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarini shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Bo‘limlardagi mavzularning nazariy mazmunining ma’nosini ochib berish uchun ko‘p miqdorda xar xil misollar keltirilgan xamda o‘z-o‘zini nazorat qilish savollari bilan ta’minlangan.

# MUNDARIJA

## **SO‘Z BOSHI**

Ta’lim sohasida islohotlar amalga oshirilayotgan va lotin grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek tiliga o‘tilgan bir paytda hamda maktabgacha ta`lim yo`nalishi uchun yangi «Matematika» o‘quv darsliklari yaratilayotgan bir vaqtida yangi ta`lim standartlarida ko‘rsatilgan fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratish zarurligi tug‘ilmoqda. Hozirgacha bor bo‘lgan adabiyotlarni ayrimlari standart talablariga javob bermaydi.

Shu jumladan «Maktabgacha ta`lim » yo`nalishi bo‘yicha « Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi » fanidan standartga to‘la mos keluvchi o‘quv darsligi yoki o‘quv qo‘llanmasi yo‘q. Shu nuqtai nazardan biz «Maktabgacha ta`lim » yo`nalishi namunaviy dasturiga to‘la mos keluvchi o‘quv qo‘llanmasi yozishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

O‘quv qo‘llanma namunaviy fan dasturiga mos bo‘lib, XII bobni o‘z ichiga oladi:

- I. Umumiyl tushunchalar. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasining nazariy asolari
- II. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasining didaktik asoslari
- III. Maktabgacha yoshdagи bolalarda miqdoriy tasavvurlarni shakllantirish.
- IV. Bolalarda son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish.
- V. Bolalarda predmetlarning o`lchami va ularni o`lchash haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
- VI. Bolalarda predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
- VII. Bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish.
- VIII. Bolalarda vaqtga oid tasavvurlarni shakllantirish.
- IX. Olti yoshli bolalar bilan matematikaga oid ishlarning mazmuni va metodikasi.
- X. Maktabgacha yoshdagи bolalarda matematik tushunchalarini shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari.
- XI. Oilada va maktabgacha ta`lim muassasalarida olib boriladigan metodik ishlarni rejalashtirish
- XII. Maktabgacha ta`lim muassasalarida matematik tushunchalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish va boshqarish.

O‘quv qo`llanmada matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasining umumiy va xususiy masalalarini bayon qilishga harakat qildik. Shuningdek, qo`llanmani yaratishda N.U.Bikbayeva, L.SH.Levenberg, A.M.Pishkalo va boshqa metodist olimlar tajribasidan foydalanganligimizni mammuniyat bilan qayd etamiz.